# SHAYBONIYLAR DAVRI KARMANADAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARDA DINIY ULAMOLAR VA HUKMDORLARNING O'ZARO HAMKORLIGI

**Botirov Nodir Sadir o'g'li**

***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi assisent o'qituvchisi***

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Shayboniylar sulolasining Buxoro xonligi boshqaruvidagi faoliyati hamda mamlakat boshqaruvida o'zlariga ustoz deb bilgan diniy ulamolarning ko'magiga tayanganligi va shu orqali davlatni gullab-yashnaganligi xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** *Karmana, Qosim Shayx , Xudoydod Vali, yassaviya, tasavvuf, tariqat, Jo'ybor, sufra, xo'ja, ulamo, mudarris, shayx , ixlos.*

KIRISH. Shayboniylar davlati ijtimoiy-siyosiy hayotida diniy hamda ilmiy jihatdan ulamolarning mavqeyi baland edi. Ushbu sulola vakillari bo'lgan hukmdorlar zamonasining mashhur shayx va ulamolarini o'zlari uchun ustoz yoki pir deb bilgan va mamlakat ichki hamda tashqi siyosatini amalga oshirishda ularning ko'magiga tayangan. Shayboniylar davrida Buxoroda Jo'ybor xo'jalari, Karmanada Qosim Shayx Azizon (vafoti 1580), Samarqandda Shayx Xudoydod Vali (1461-1532) va Mahdumi A'zam Dahbediy (1461-1542) kabi tasavvuf vakillari faoliyat yuritgan.[1]Yuqoridagi fikrimizga Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon I va Abdullaxon II lar misol bo'la oladi. Bu shaxslar ya'ni Muhammad Shayboniyxon Shayx Mansurni, Ubaydullaxon Abdulla Yamaniyni (Mir Arab), Abdullaxon II Qosim shayx Azizonlarni o`zlariga ustoz-pir deb bilganliklari va siyosiy faoliyatida ularni maslahatlariga tayanganliklari ham shundan dalolatdir. Muhammad Shayboniyxon dastlab yassaviya tariqatining ko`zga ko`ringan vakillaridan biri Shayx Mansurni o'ziga pir deb qabul qilganligi manbalarda uchraydi. Bu davrlarda tasavvuf vakillarining zamona hukmdorlari oldida nufuzli mavqega ega ekanligi ko'plab

tarixiy manbalardagi ma'lumotlarda o‘z aksini topgan. Xususan, Muhammad Shayboniyxon va Shayx Mansur o‘rtasida bo‘lib o‘tgan dastlabki uchrashuv to‘g‘risida "Lamahot" asarida shunday deyiladi: "bir kishi unga (Shayboniyxonga) Shayx Mansur haqida habar berdi. Shu tariqa Shohbekxon Shayx Mansur xizmatiga keldi. Shayx Masur: "Ey O‘zbek, sen podshohlikni istab qoldingmi?"-dedi va muridlariga sufra (dasturxon) keltirishni buyurdi. Sufra keltirilgach, u sufraning chekkasidan o‘rab ko‘rsatdi-da, sen ham viloyatning chekkasidan yurishni boshla"-dedi. Shundan so‘ng Shayboniyxon ushbu tariqat asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilish maqsadida o‘z tarafdorlarini yig‘ib (Yassi) Turkistonga boradi. U Xoja Ahmad Yassaviyning mozorini ziyorat qilib, Toshkentga yurish qildi".Ushbu ma'lumotlar H.Vamberi asarida ham o`z aksini topgan bo'lib, unda: "Shayx Mansur Muhammad Shayboniyxonning markazlashtirish siyosatini qo`llab-quvvatlaydi va ushbu yo`nalishda unga qimmatli maslahatlar berib: "O`rtasidan emas, chetidan boshlash kerak" degan ramziy ishorasiga muvofiq Muhammad Shayboniyxon avvalo, yaqin atrofdagi beklarga murojat qilib, ularni temuriylar hokimiyatini butunlay tugatishga da'vat etadi hamda Movarounnahrni bir chetidan bosib olishni boshlaydi" deyiladi.[2] Ubaydullaxon ham Abdulla Yamaniy (Mir Arab) bilan birga suhbat qurib, maslahatlashib ish yuritganligi, uni o`ziga ustoz deb bilganligi, ularning diniy ilm egalari bo'lgan insonlarga qanchalik hurmati baland ekanligini bildiradi. Yoki shayboniylar sulolasining eng mashhur vakili Abdullaxon II ning tug‘ilgan vaqtida unga ism qo‘yish jarayoni ham alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatning shahzodasi, bo‘lajak hukmdoriga ism tanlashda tasavvuf vakillaridan, jumladan, shu vaqtlarda Buxoroda bo‘lgan Mahdumi A'zam Dahbediydan maslahat va ijozat so'rashi Arab Qatag‘on asarida quyidagicha keltiriladi: "Sulaymonmakon Iskandar sulton Xojagon silsilasiga haddan ziyod ixlosi baland bo‘lgani sababli qarindoshi mavlono Darvish Muhammadni loyiq tuhfalar bilan niyoz tariqasida hazrat valiypanoh Hojagi Kosoniy (Mahdumi

A'zam) huzuriga yubordi va shu orqali muborak fotihalarini so‘rab, chaqaloqqa yaxshi nom va chiroyli ism qo‘yishlarini ham tiladi. Ul hazrat duo va ixlosi fotiha o‘qidi va unga "Abdulloh" deb ism qo‘ydi".[3] Umuman olganda mamlakat boshqaruvida tasavvuf vakillarining hukmdorlar bilan faolligi, ushbu hukmdorlarning diniy ulamolar maslahatlariga itoat etib mamlakatni yuksak darajaga ko`targanligidan dalolat beradi. Ubaydullaxon va Abdullaxon II tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar o‘z davrida yuqori mavqeyiga ega bo‘lgan Mahdumi A'zam Dahbediy, Shayx Xudoydod Vali, Qosim Shayx Azizon va Jo‘ybor xojalari (xoja Islom, xoja Sa'd) tomonidan qo‘llab quvvatlandi. Ayniqsa, bu davrlarda boshqa din vakillariga nisbatan Jo‘ybor xo'jalarining qudrati va nufuzi ancha baland edi.

Ular o‘zlarini aslzodalik va tariqatdagi yuqori mavqeilariga ko‘ra, ota tomondan Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) avlodlariga, ona tomondan esa Chingizxon va Jo‘ji avlodlariga bog‘lardi.[4] Ularning ixtiyorida ko‘plab yer-mulklar to‘plangan bo‘lib, buni faqat Xoja Ahror mulklari bilangina qiyoslash mumkin. Tarixchi Hofiz Tanishning yozishicha, Jo‘ybor xo'jalaridan biri Xoja Sa'd Buxoro xoni Abdullaxon II ning murabbiysi va maslahatchisi sifatida siyosiy voqealarda katta nufuzga ega bo‘lgan hamda barcha siyosiy voqealarda shaxsan ishtirok etgan. Hattoki Abdullaxon II Xoja Sa'dning ruhsatisiz birorta ham muhim ishni amalga oshirmagan.[5] Bu holatni Xoja Sa'dni yuqori ijtimoiy-siyosiy mavqeyiga ega bo‘lib, Abdullaxon II ni hokimiyatga kelishida har tomonlama qo‘llab- quvvatlaganligi bilan ham izohlash mumkin. Shayboniylar davrida va undan keyingi sulolalar davrida ham Buxoro O‘rtaO siyoda islom dinining tayanch markazlaridan biri sifatida mavqeyini saqlab qolgan. Bu yerda O‘rta Osiyoning turli hududlaridan kelgan diniy ulamolar, shayxlar, mudarrislar to‘plangan bo‘lib, ular islom ilmlarining turli sohalari bilan shug‘ullangan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu yerdagi tarixiy obidalar, hukmdorlar, aziz-avliyolar va allomalarning tarixiy meroslariga alohida to'xtalib, ularni o'rganib bugungi kunda ularni chuqur tadqiq etish, shuningdek, ulardan bugungi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohalarida unumli foydalanish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.A Qandaharov "Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati"nomli monografiyasi, Tafakkur qanoti.T. 2018. 31-b.

2.Vemberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G'ofu G'ulom, 1990. – B.79.

3 Muhammadyor ibn Arab Qatag'on. Musaxxir al-bilod. Fors tilidan Ismoil Bekjon va Dilorom

Sangirova tarjimasi. T.: Yangi asr avlodi, 2009. –B.225-226.

4.Axmedov.B Tarixdan saboqlar.T. "O`qituvchi".1994. 26-b.

5.Hofiz Tanish al-Buxoriy "Abdullanoma" Fors tilidan S.Mirzayev tarjimasi 1-jild. T. Sharq.1999.81-b.